


Ona yurting - oltin beshiging

TONG

yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi  
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiga boshlagan

№33 (66418)  
2003 yil  
25 avgust  
dushanba  
Sotuvda  
erkin narxda



Mening bobojonim  
Usmonov To'xta  
Usmonovich 1931  
yilning 28-avgustida  
tavallud topganlar.  
O'sha yillarning  
q a t a g ' o n

Meditina institutiga hujjatlarini topshirgan ekanlar.  
Imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tgach, talaba bo'lган  
ekanlar. Talabalik kezlarida ziyoli insonlarning davrasida  
ko'п bo'lган ekanlar. Talabalik yillarida  
juda ko'п domlalar bilan

sog'lik tilayman.,

**YUZGA KIRING, BOBOJON!**

mulohazali  
fikrlar yuritgan ekanlar. Ular  
qo'llariga diplom olgach, ilmiy ish qilishga  
kirishib, uni ham muvaffaqiyatli tugatib, teri tanosil  
kasalliklari bo'yicha fan doktori ilmiy unvoniga sazovor  
bo'lган ekanlar.

Barchamizning kamolimizni  
ko'rib, ko'zlarizing quvonib yursin,  
bobojon!

Bobojonim hozirgi kunlarda ham sevimli kasblarini  
tashlamaganlar. Ularning «Xizmat ko'rsatgan shifokor»  
unvonlari va ko'plab «Maqtov yorliqlar»i bor.

Bobojonim, mehribonim,  
Uzoq umr ko'rib yuring.  
Yoningizda buvijonim,  
Ila doim birga bo'ling.

Mustaqillik bayrami arafasida bobojonim muborak 72  
yoshga qadam qo'yadilar. Ular bilan birgalikda yillar  
suronini yelkama-yelka tutib kelayotgan buvijonimga

Xizmatda biz nabiralar,  
Labbay, deymiz har bir ishga,  
Siz buyuring, biz tayyormiz,  
Har bir ishu har yumushga.

Munisa UBAYDULLAYEVA,  
Yunusobod tumani.

**“FARZANDINGIZGA OLIB KETING...”**

«Tong yulduzi» eng sevimli nashrim. Shuning  
uchun ham uning har bir sonini qoldirmay o'qib  
borishga harakat qilaman. Lekin bu nashri gazeta  
sotiladigan do'konlardan topish amri mahol-da.  
Har doim, yo'q, deyishadi. Bor bo'lgan taqdirda  
ham do'konning ichkarisidagi allaqanday gazetalar  
taxلامi orasidan olib berishadi...

Tunov kuni uyimiz atrofidagi do'kondan  
so'rasam, bu gazeta bizga juda kam beriladi,  
chunki hech kim olmaydi-da, deb javob berishdi.  
Sababini so'rasam, lotin yozuvidagi gazeta va  
jurnallarga talab kam emish.

Menimcha unday emas. Chunki lotin yozuviga  
asoslangan alifboda tahsil olayotgan o'quvchilar

bu yil 10 - sinfga o'tishdi. Demak, bizning  
tengdoshlarimiz bu gazetani bemalol o'qiy  
olishadi. Faqat ularni o'qishga qiziqtira bilish  
lozim, deb o'layman. Bu xayrli ishga gazeta  
va jurnallar sotayotgan amaki va xolalarimiz  
ham o'z hissalarini qo'shsalar, foydadan holi  
bo'lmasdi. Qanday qilib, deysizmi?  
Avvalambor «Tong yulduzi»ni ham  
do'konning eng ko'rinarli joyiga ilib  
qo'yishsa. Gazeta va jurnallarni asosan ota-  
onalalarimiz sotib olishadi. Boshqa nashrlarni  
xarid qilish uchun kelgan xaridorlarga, mana  
bu gazetadan ham o'g'lingiz yoki qizingizga  
olib keting, juda qiziqarli nashr, deya maslahat

Tez kunda o'yinqaroq, betashvish kunlarimiz tugab, jonajon maktab bag'riga  
qaytamiz. Axir mehribon ustozlarni, bolalar bilan gavjum, sershovqin  
sinfxonalarini sog'inmay bo'larkanmi.

Maktabimiz tumanda namunali bilim maskani sanaladi. U 200 nafar  
o'quvchini bag'riga oladi, rus tiliga ixtisoslashgan. Muallimlarimiz barcha  
fanlardan chuqur bilim berishadi. Shuning uchun bizda a'lochi, bilimdon  
bolalar ko'p.

**QO'SHALOQ BAYRAMNI KUTIB**

Ta'lim maskanimizga tinib-tinchimas, serg'ayrat, uddaburon, ayni paytda  
qattiqqo'l va talabchan rahbar Roza Yunusaliyeva yetakchilik qiladi. U kishining  
sa'y-harakatlari, yelib-yugurishlari natijasida maktabimiz iyun oyidayoq to'liq  
ta'mirdan chiqarildi. Shu kunlarda fan xonalarini jihozlash, maktab hovlisini  
tozalab, tartibga keltirish kabi ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada biz, o'quvchilar ham yaqindan yordam berayapmiz. Maktabimiz  
qancha gullab-yashnasa biz o'quvchilar bundan faxlanamiz.


Darvoqe, mening o'zim yangi o'quv yili uchun barcha darsliklar va o'quv  
qurollarni ham hozirlab qo'ydim.

Qo'shaloq bayram- respublikamizning Mustaqillik kunini va yangi o'quv  
yilini puxta tayyorgarlik ko'rgan holda sabrsizlik bilan kutayapmiz.

Nodira JO'RAYEVA,

Andijon viloyati, Ulug'nor tumanidagi 20-maktabning

6-sinf o'quvchisi.



Mafstuna QO'CHQOROVA,

Poytaxtdagi

179 - maktabning sinf

o'quvchisi.

# BO'STONGA AYLANGIN, O'ZBEKISTONIM!

Men ushbu maqolamni hur diyorming muborak «12» bahoriga ehtirom bilan bag 'ishlayman.

Biz hech kimdan kam emasmiz va kam bo 'lmaymiz ham.

Vatan! Yurakni entiktirib, dilga in qutgan muqaddas tuprog 'im. Bahor qadami ila anhor yoqasida asta bo 'y cho 'zgan jajji yalpizim. Har sahar qoshim qatlarida qarolik yurgizgan o'sma-yu surmam kabi menga qadrond u. Go 'daklikdan meni issiq bag 'rida ulg 'aytirgan beshigim.

Ey, bugun ilk muchalini qarshilayotgan, baxtu shodlikdan dili entikkan onaizoram - O'zbekiston! Men shu mukarramu muazzam o'ikaning «parilar shahri»da voyaga yetgan tog 'qizidirman.

Mening Vatanim Navoiyu Behbudiyarlarni, To 'marisu Shiroqlarni o'z bag 'rida allalagan O'zbekistondir. Bu o'ikaning o'tmishini varaqlab yuraging ko 'pribit tushadi. Necha-necha asrlar mobaynida erk deya entikkan yuraklarda beixtiyor tug 'yonlar bo 'roni mavjlanadi.

Chingizxon bosqini, Botu, Jo 'jilar. Arab istilos, Chor Rossiyaning adoqsiz zulmi. 30-yillarning suronli, qonli, sovuq shamollari. Xalqning asl o 'g 'lonlari, ko 'z qarog 'lari. Cho 'lponu Elbeklar, Nodirayu Fitratlar, Fayzulla Xo 'jayevlar. Erku istiqlol umidida buyuk ajodolarimiz jordan kechsa kechdi-ki, vatandan kechmadi. Dushman oldida mag 'rur boshlari xam bo 'lmadi hargiz.

**YURTIM**

Tog 'dan asta ko 'tarib bosh,  
Jilmayadi bobo quyosh.  
Xo 'roz qichqirar jonsarak,  
Tong otdi, deb berar darak.  
Ko 'rganini sirli tushlar,  
Chuvvos solib so 'ylar qushlar.  
Kuylay boshlar rayhon, gul ham,  
Labida bir shoda shabnam.  
Uyg 'onadijamijonzot,  
Ko 'chalar ozoda, obod.  
Shukronali bir shavq bilan,  
Boshlanadijo 'shqin hayot.  
Bobom kumush ketmon bilan,  
Go 'yo yerga bitar g 'azal.  
Rizq barakot ungan dalam,  
Mehnatidan ko 'rkam, go 'zal.  
*Mahbuba SIDDIQOVA,*  
*Namangan viloyati,*  
*Chortoq tumanidagi*  
*45-maktabning 7-sinf o 'quvchisi.*

Kulgan boshqalardir, yig 'lagan menman,  
O 'ynagan boshqalar, ingragan menman.

Erk ertaklarini eshitgan boshqa,  
Qullik qo 'shig 'ini kuylagan menman.

Hazrat Cho 'lponning bu she 'rini oddiy nazar bilan o 'qish kufrlikdir. Istiqlol quyoshi qalbimizni yoritayotgan bugungi kunda bizning farovon hayotimiz uchun kimlarningdir begunoh boshlari kundaga qo 'yilganligini unutmoq esa Janobi Haqning qahriga duchor bo 'lmoq bilan barobardir.

Bugun o 'zimizning dinimiz, tilimiz va faqat bizga, ko 'nglimizga tegishli bo 'lgan ozod bayrog 'imiz va hur O'zbekistonimiz bor. 1991 yil 31 avgust kuni dunyo xaritasida yana bir ozod davlat paydo bo 'ldi. Ana shu go 'dak bugun 12 yoshda. 12 yosh... Ilk muchal yoshi. Mustaqilligimizning har bir yilida ulug 'ajdodlarimizning yubileyлari munosabati bilan qad rostlayotgan inshootlar, madrasayu majmualarni aytmaysizmi?

O'zbekiston! Onaizoram. Qalbim quyoshi. Senga atalajak dil so 'zlarimga qulq ber: Hamisha istiqlol osmonida mangu charaqlab turaverin. Senga qora nazar bilan boqqan g 'animning yuzi ters bo 'lsin. Bag 'ringda ungan nihollaring ulg 'ayib, bo 'stonga aylangin, O'zbekistonim.

Sadoqat DADAYEVA,

Parkent tumanidagi 5-ixtisoslashtirilgan litsey-maktabning 9- «A» sinf o 'quvchisi.

Men inshoimni bir afsona bilan boshlamoqchiman:

Yer yuzida bir shahar bo 'lgan ekan. Bu shaharning atroflari mustahkam qo 'rg 'onlar bilan o 'ralgan, aholisi esa tinch-totuv yashashar ekan. Bu shaharga egalik qilmoqchi bo 'lgan

muhit, oilasi

katta ahamiyatga ega. Vatan

uchun kerak bo 'lsa jonini ayamagan askar akalarim oldida haligi xoin darvozabonni qilgan ishi vatanparvar ishiga mutloq ziddir. Vatanimiz sarhadlariga

firog 'ida kuyib, g 'azallar bitadi. Tarix zarvaraqlarni varaqlaysersak, vatan ishqida aziyat chekkanlar qanchadan-qancha. Ularning adog 'iga yetib bo 'lmaydi. Mustaqillik kunlariga yetisha olmagan, uni orzu qilgan ota-bobolarimizning bugungi kunda orzulari ushaldi. Yaqinda mustaqilligining 12 yilligini nishonlaydigan

# TUPROG'I ZAR VATANIM!

dushmanlar esa bu shaharga kira olmay, qilichlarini havoda o 'ynatib, qaytib ketishaverarkan. Bir vaqtida bu shaharpi bir johil odam egallamoqchi bo 'libdi. Unimani bo 'lsa ham ishga solib, shu shaharni olmoqni istabdi. Navkarlaridan ikki kishini shahar ichiga qalandar kiyimida kiritib yuborib, u yerdag'i ahvolni bilib chiqishni tayinlabdi. Ayg 'oqchilar ikki kun o 'tgach qaytib kelishibdi. U yerda to 'qchilik, ahilchilik hukm surayotganini, birorta ham gado yo 'qligini aytishibdi. Shunda ularning boshliqlari ayg 'oqchilarini yana shaharga jo 'natibdi. U yerda darvozabonlardan birini oltinlarga ko 'mib, boy bo 'lib ketishini aytishlarini, faqat buning evaziga shahar darvozalarini ochib berish kerakligini tayinlabdi. Ayg 'oqchilar bir oltinga o 'ch bo 'lgan bir darvozabonni topishibdi. Uning xatti-harakatlarini bir necha kun kuzatishibdi. Oxiri unga oltinlar va 'da qilishibdi. Darvoza qorovuli bunga rozi bo 'libdi. Mash 'um kunlarning birida el shirin uyquda yotgan mahalda shaharga yog 'iy bostirib kelibdi. Ular barchani qilichdan o 'tkazibdi. Shaharda ariqlarda suv o 'rniga qon oqibdi. Shaharni qo 'lga kiritgan dashmanning boshlig 'i o 'sha darvozabonni chaqirtiribdi. Darvozabon boyib ketishni umid qilib, uning oldida ta 'zim qilib, endi unga sidqidildan xizmat qilishini aytibdi. U esa qilichini qinidan sug 'urib, o 'z eliga vafo qilmagan inson o 'zga elga ham vafo qilmaydi, deb darvozabonni boshini tanasidan judo qilibdi. Shunday qilib, bir ochko 'z darvozabon tufayli bir xalq qirilib ketgan ekan...

Inson uchun eng aziz go 'sha o 'z vatan hisoblani. U ana shu yerni bir umr tavof qilib, asrab-avaylab o 'tadi. Insonni ona vataniga muhabbatni shakllanishiga esa tashqi

bostirib kirish niyatida qilingan hujumlarda o 'z jonini ayamay biz uchun, oilasi tinch yashashi uchun o 'z jonidan, huzuridan kechgan Doniyor, Ulug 'bek, Elomon, Qahramon akalarimiz o 'z ismlariga mos bo 'lib, ona vattani himoya qilishda halok bo 'ldilar. Biz ularni hamisha yodimizda saqlaymiz. Vatanparvar bo 'lish osonmas. Vatan oldida labbay, deb javob berish uchun hamma talablarga javob bera olish, vatan oldidagi muqaddas burchimiz - uni asrashni sidqidildan bajarishimiz lozim. Biz yashayotgan vatan esa O'zbekistondir.

Uni bejiz «Serquyosh o 'lka» deyishmaydi. Bu yerdagi bir-biridan shirin mevalarni, qovun-tarvuzlarni hech qayerdan topib bo 'lmasa kerak. O 'z vatanish qida kuyib-yongan Boburni eslangu. U vatanidan keltirilgan qovunni boshqa qovunlarga o 'xshatmasdan, mazasi va hididan ajratib olganini aytadi. Bir umr vatan

O'zbekistonni bugungi kunda juda ko 'p mamlakatlar tan olmoqda. Bu yillar ichida mamlakatimizda ko 'p o 'zgarishlar bo 'ldi. Bir-birlaridan chiroyli binolar, go 'zal manzarali ko 'chalar odamni ko 'zini qamashtiradi. Bu yerga tashrif buyurayotgan chet ellik mehmonlar ham bu mamlakatning obodligidan ko 'ngillarida allaqanday ilqlik bilan ketadilar. Prezidentimizning tashabbuslari

bilan bir nechta tarixiy obidalar qayta ishlanib, asholiga keltirildi va ziyyaratgoh joyga aylantirildi. Bu yerga kirib chiqayotgan har bir sayyoh yana bir marta kelish ishtiyoqida ketadi. Bizning vatanimiz ana shunday o 'ziga maftun qiladigan, odam bir marta suvini ichsa, yana kelgisi kelaveradigan muqaddas joydir. Biz yoshlari ota-bobolarimizdan yodgorlik bo 'lib qolgan mana shu muqaddas tuproqni avaylab -asrab, unib o 'sib kelayotgan ukajonu singiljonlarimizga qanday bo 'lsa, shundayligicha taqdim etishimiz darkor. Men mana shu hu mamlakat - O'zbekistonda yashayotganimdan faxlanaman. Kundan-kunga chiroy ochib, gullab-yashnab kelayotgan ona vatanimizga hech qachon ko 'z tegmasin.

Mohinur  
SIROJIDDINOVA,  
Parkent tumanidagi  
12-o 'rtta maktabning  
9-sinf o 'quvchisi.

**O'ZBEKISTONIM**

O'zbekistonim sensan vatanim,  
Sen uchun fidodir mening jon-tanim.  
Noming tanilgandir butun jahonga,  
Baxt qushi qo 'ngandir sening boshingga.  
Islom bobom yaratgan yangi zamonda,  
Sen quchgan bog 'laring bo 'ldi lolazor.  
Tinchlikni istaydi barcha bolalar,  
Seni duo qilar bizning onalar.  
Yurtim vodiylaring naqadar go 'zal,  
Chamanda sayraydi bulbullari hur.  
Kelajakka intilib xalqingga sen zo 'r qanot bo 'l.  
Ko 'makdosh xalqingga sen zo 'r qanot bo 'l.  
Sen uchun jonini fido qilishga,  
Tayyordir ey elim, butun yoshlar.  
Gullagin, yashnagin, tinch har qachon,  
Ey, nurli diyorim hur O'zbekiston.

Dildora JO 'RAYEVA,  
Samarqand viloyati, Pastdarg 'om tumani.

16  
«QO'SHIQCHI»  
«Qo'shiq» aytar ming'irlab,  
O'yin tushar g'ing'irlab,  
Yashirinib oladi  
Chirojni yosasam nolon.

Bu zumrasha, bu belyuz —  
Chaqirlilmagan menmon,  
O'shig' ining'hadiga  
So'rar meydana la'da... dom!

15  
QO'G'IRCHOQ  
Yeru ko'kka ishonmas  
Qo'g'irchog'in Zeboxon.  
Choy ichgan payt choy ich, der,  
Non yeganda tutar non.

Ko'rimmay qolsa agar,  
Timmas topguncha izlab.  
Keyin kechbaacha yurur,  
Qo'g'irchog'ini «siz»lab!

8  
MUSHUK BOLASI  
Boqamiz deb qo'shнимиздан  
Olib chiqdik mushuk bola.  
Musichadan sal kattaroq,  
Qulog'i oq, dum qora.

Qo'lumizdan sira qo'ymay,  
Tezroq katta bo'l, dedik biz.  
Oyimizga bildirmasdan  
Unga faqat go'sht berdik biz.

Bilgan ishi — «miyov-miyov!»  
Timmay doddar tushlik maha!  
Na non yeydi, na suit ichar,  
Qiyma ber, deb qiljar janjal...

23  
PISHIQCHILIK  
- Kim urishdi, kim urishdi?  
Yuzu ko'zing, ayt nega qon?-  
Deya so'rar Sobijondan  
Buvijoni bo'lib hayron.

- Qon emas, - der Sobir povon  
Supachaga to'shab sholcha.  
So'ng qo'yninga bo'lin solib,  
Buvisiga tutar... olcha!

30  
KAMALAKJON  
(Zeboning she'ri)  
Paydo bo'lsang boshinda  
Aqlim shoshib qoladi.  
Aqlim shoshgani sari,  
Zavqim toshib qoladi.  
Chiqolmasman oldingga,  
(Axir emasman-ku qush).  
Yomg'irlarga osilib,  
Sen yaxshisi, pastga tush.  
Tushsang, sochinga o'xshab,  
Qilib qo'y gumjamalak.  
... Osmoningda meni ham  
Ko'rasanmi, kamalak?..

Aziz o'quvchi! Qo'lingzdagi  
she'rlar majmuasini o'zingiz  
sahifalab, kitob holiga keltirib  
oling. Chunki bu kitob rost  
so'ylab, quvonch va qayg'usini  
oson namoyon qiladigan, qadr-  
qimmati, qarindosh - urug'lar  
hurmatini biladigan Siz  
bolajionlar haqidadir. Sodda va  
quvgina, quvnoq va yig'loqigina  
qahramonlariniz o'z olami,  
yaqin ko'rgan odamlari haqida  
shirin til bilan gapirib, beixtiyor  
o'ziga sizni do'st qilib qo'yadi.  
Lotin yozuvidagi kitoblarinigiz  
soni yana bittaga oshganidan  
quvonasiz, deb o'ylaymiz.

7  
TABIAT ALIFBOSI  
Qulupnay, tut va gilos —  
Bu bahor sernoz.  
Qovun-tarvuz, handalak —  
Oltin yoz, demak.

Ko'sak «gullab», anorga  
Kirs qirmiz tus,  
Yetib kelgan bo'ladi  
O'lkamizga kuz.  
Boshlansa sharbat, qiyom,  
Tuzlama ochish,  
Bilaverki, qor yog'ar —  
Bu degani qish...

24  
OCHOFAT  
Orni bilmas ko'zi och,  
Ko'zi ochdan nari qoch.  
U bilan borsang «gap»ga,  
To'y yoki ziyofatga,  
Uyatti sira bilmay,  
To'ldirar og'zin timmay!



2003

(18) BOLA TILI

Jäji qizcha — Zeboxoni  
Maqtasangiz, erib ketar.  
Qiziq-qiziq so'zlar aytib,  
Ko'nglingizni xushnud etar.

Ezkalanib, ezmalanib,  
So'z boyligin etar «ko'rik»:  
- Dovuchchaning oti nima,  
Dovuchchaning ota — o'rik!

(13) SHUHRATJONNING TOVUG'I

Shuhratjoning tovug'i qiziq:  
Qorni ochsa zir-zir chopadi.  
Hech vaqo yo'q — yalang yerdan ham  
Yegulik nimadir topadi.

Shuhratjoning tovug'i qiziq:  
Fe'l-atvori bir o'ziga xos —  
Ba'zan qorni och bo'lnasa ham  
Tuxumini yeb qo'yari paqqos!

(10) ZEBO DEGAN QIZGINA

Qo'llarida ko'zmunchoq,  
Yarmi qora, yarmi oq.  
Biram sho'x, biram quvnoq,  
Zebo degan qizgina.

«Oyi» deyishni bilar,  
«Dada» deyishni bilar,  
Endi bir yarim yashar,  
Zebodegan qizgina.  
Holva bilan ishi yo'q,  
Demang, yana tishi yo'q.  
Qand bersangiz, demas yo'q,  
Zebodegan qizgina.  
Villar o'tib yil kelar,  
Ko'ngil sevinchga to'lar,  
Bir ajoyib qiz bo'lар,  
Zebodegan qizgina...  
...

(21) ABADIY MASHMASHA

Yana o'sha mashmasha:  
Musshukni quvlar kuchuk.  
Har galgidek yetolmay,  
Irillary boshlari xunuk.

Musshukvoy bu safar ham  
Yo'l tutar maymunga xos —  
Orokirar joniga  
Hovlida o'sgan gilos.  
  
Shovqindan zada qo'yilar  
Kuchukka trashashar gap:  
- Chiqolmasang daraxtga  
Nima qilasan quvlab...

(29)

KUCHUKCHAM  
Mayin yungli kuchukcham  
Qarang, tushunar so'zim.  
Uni mushtdekligidan  
Katta qilganman o'zim.

Ovqat tutsam hozir ham  
Quvonadi vovullab.  
Xuddi rahmat, degandek,  
Qo'llarim qo'yariyalab.

- Ming bir dardni  
tanadan  
Yubora olgum quvib.  
Meni qanday yesang, ye,  
Ye faqat  
doin yuvib...

Bo'ridan-ku qo'rqlmayman  
Afif uning tasqara.  
Qachon ko'rsam, hammaga  
Bo'lib yurar masxara.

O'sha Bo'ri o'zini  
Chopag'on deb o'laydi.  
Menga: «Semmi, shoshmay tur!»  
Deyishini qo'ymarydi.

(2)

TURPCHA  
MASLAHAT  
- O'tiribmi yo turib,  
Turibmi yo o'tirib,  
Seni qanday yesam soz,  
O'zing ayta qol, turp?

- Ovqat tutsam hozir ham  
Quvonadi vovullab.  
Xuddi rahmat, degandek,  
Qo'llarim qo'yariyalab.

(5)

QUYON  
O'rtioqlarim ismimi  
Ziyarak Quyon, deydlilar.  
Bo'ri yurgan yo'llarda  
Ko'zi giryon deydilar?


To'yib-to'yib dam olar,  
To'yib yeydi muzqaymoq.  
To'yib-to'yib ichar choy,  
To'yib yalar bol, qaymoq.

Vaqt topar, to'yib-to'yib  
Kavshashga nonu ovqat.  
To'yib-to'yib ishlashga  
Dangasada yo'q toqat!

(26)

DANGASAVOY  
To'yib-to'yib uxmlaydi,  
To'yib-to'yib ko'rар tush.  
To'yib-to'yib esnashni  
Dangasavoy ko'rар xush.





1. Simon Bolivar qaysi davlat asoschisi?

A) AQSH; B) Urugvay; C) Chili.

## ARALASH

T  
E  
S  
T

2. O'zbekistonligi «Yilning yaxshi futbolchisi»?

A) A.Geynrix; B) M.Qosimov; C) N.Qutiboyev.

3. BMTning qarori bo'yicha, 2003 yil qanday yil deb e'lon qilindi?

- A) «Obod mahalla» yili;
- B) «Toza ichimlik suvi» yili;
- C) «Qariyalar» yili;
- D) A,B to'g'ri.

4. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga O'zbekiston qachon a'zo bo'lgan?

- A) 1991-yil, 31 avgust; B) 1992-yil, 8 dekabr;
- C) 1992 yil, 2 iyul; D) 1992 yil, 2 mart.

5. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida» asari muallifi?

- A) I.Karimov; B) A.Oripov;
- C) O'.Hoshimov; D) Said Ahmad.

6. O'zbekistonlik iste'dodli qizlarga beriladigan mukofot nomi?

- A) «Taron»; B) «Zulfiya»;
- C) «Nihol»; D) «Ofarin».

**Tuzuvchi:**

Bibimaryam XO'JANOVA,

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xo'jayli tumanidagi

57-maktab o'quvchisi.

## QOSHIG'U VILKA...

Statistikaning ta'kidlashicha, hozirga kelib sayyoramiz aholisining 1,4 milliardi ovqatni qo'llda, taxminan 1,5 milliardi tayoqchalar bilan va 600 millioni esa qoshiq, pichoq va vilka (sanchqi) yordamida tanovvul qilar ekan.

Shifokorlarning aytishicha, tayoqchalar bilan ovqat yeyish sog'lik uchun foydali ekan, negaki, ovqat tanovvul qilish ko'p sonli muskul paylari va organizmning 30 ta asab nuqtalariga ta'sir ko'rsatib, muskul va asab tizimi faoliyatini faollashtirar ekan.



Ovqat yeyish tayoqchalar qoshiq vila bilan bellashgan holda Xitoy, Yaponiya, Koreya, Vyetnam va Uzoq Sharq mamlakatlarda keng tarqalgan.

Suyuq ovqat tanovvul qilish uchun qo'llaniladigan qoshiqni qadimgi Misrda bundan 5000 yil avval o'ylab topishgan ekan. O'sha vaqtida qoshiqlarni loy, yog'och va toshdan yasashgan ekan. Qadimda assiriyslar bronza va mis qoshiqdan foydalanganlar. Yevropada esa mazkur oshxona pribori O'rta asrlarda paydo bo'lган. Beixtiyor yevropaliklar qoshiq paydo bo'lgunga qadar sho'rvani qanday ichgan ekanlar, degan jumboqli savol tug'iladi.

Ma'lumki, vilkaning «tavallud topgan joyi» Vizantiya bo'lib, kumush va oltindan yasalgan ikkita tishi bo'lган. Uzoq vaqtgacha vilkadan faqat zodagonlarga foydalishgan. Yuz yillik davomida vilkalarning shakli va hajmi bir necha bor o'zgargan, suyak, shox, chinni, yog'och, temir ushlagichli, keyinroq esa melxior va alyuminiyli, endi bo'lsa umuman plastmassa vilkalar paydo bo'lган. Keyinchalik esa hatto ixtisoslashgan - go'sht, baliq, ho'l mevalar uchun vilkalar paydo bo'ldi.

Qachonlardir, Angliya qiroli saroyida bo'ladigan ziyoftlarda vilkalarni tishi yuqoriga qilib qo'yilar edi. Bir kuni, 1725 yilda ziyoft vaqtida qirol Georg I qizg'in bahs ustida mushti bilan stolga urgan vaqtida qo'liga vilka kirib ketgan ekan. Shundan keyin, qirolning maxsus farmoyishi bilan vilkalarni tishini pastga qilib qo'yiladigan bo'libdi.

Ruminiyada shu turdag'i yagona muzeysi tashkil etilgan. Uning ekspositsiyasida o'nlab mamlakatlardan yig'ilgan 5400 turli xil yog'och qoshiqlar mavjud.

*Aziza ALIBOYEVA tayyorladi.*

## Tengdoshlaring ijodi

### VATAN ISHQI

Yuragim qo'rida nur sochar oftoh, Uning nurlaridan olarman bahra. Oftob yuragimda sochar ishq o'tin, Bu «Vatan ishqida»dir ishqlardan sara. «Vatanda munavvar» - o'chmas alanga, Bu ishq yuraklarda mavjlanib turar, Demakki, Vatanga bo'lgan muhabbat, Ezgulik, Ollohning quvonchi bo'lar.



### TUYG'ULARNING ULUG'I


Xayol og'ushiga cho'kadi shoir, Sho'ir xayolida ming xil fikrlar. Bu uning Vatan ishqiga doir, Mana sho'ir yozgan ushbu satrlar. -Ollohim, yurtimni asragin doim, Yurtim quchog'ingda gullab yashnasin. Ollohim, faqat sendan bir iltijoyim, O'Isam, Vatanimni panohga olin! Sho'irning yuragi Vatan ishqidir, Vatanga muhabbat cheksiz bir dunyo. Sen ham yurt ishqini o'zingdan qidir, Bu amalga oshuvchi eng ezgu ro'yo.

*Gavhar NORINBOYEVA,  
Toshkent viloyati, Ohangaron tumanidagi  
33-maktabning 7- «A» sinf o'quvchisi.*

*Dilnoza SORBOYEVA,  
Toshkent viloyati,  
Ohangaron tumanidagi  
12-maktabning  
9- «D» sinf o'quvchisi.*

## BO'SH O'TIRMAK, BOSH GOTIR!

«GULLAYOTGAN VATANIIM,  
tanloviga



1	2	3	4	5	6	7
10		11		12	13	
14				15	16	
17				18	19	22
18				20	21	23
20	26	21	27	23	24	25
25	29	20	1			
30	2	31		32	35	33
34						
39	6	8		40	41	
				42		

**Bo'yiga:** 2. Yaqinda 2000 yilligi nishonlangan shahar. 3. O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruva shakli qanday? 4. O'qigan, dono, zukko. 5. Neftni qayta ishslash zavodi mamlakatimizning qaysi shahrida joylashgan? 6. O'zbekiston-Koreya qo'shma korxonasi qaysi shaharda joylashgan? 7. Yurtimizda yagona bo'lgan metall zavodi qaysi shaharda joylashgan? 8. Ortig'i bilan, to'la.

12. Buxorodagi maqbara. 13. Zulfiya olgan mukofotning nomi. 14. Daraxt. 18. Milliy boyligimiz. 22. Rang, xil. 23. Tongda o'qiladigan namoz. 24. Da'vo. 26. Jarohat. 27. O'zbek elining milliy libosi. 28. Orom, hordiq. 29. Milliy mato. 32. Milliy taom. 33. Jizzaxdagi tuman. 35. Bizdan ozod va ... obod Vatan qolsin. (I.Karimov). 36. Aql, zakovat bilan boshqalardan ajralib turuvchi jonzot. 37. Mehmonxonalardan birining nomi. 39. «...li emas, epli bo'ling» (Maqol). 41. Marjon.

**Eniga:** 1. Istiqlolning 4 yilligi munosabati bilan nashrdan chiqqan 3 tildagi kitobning nomi. 9. Inglizcha «janob». 10. Shahrisabzning ikkinchi nomi. 11. Sirg'a. 12. Biror metallning eng ko'p joyi. 15. Toshkent - ... shahri. 16. Hayron. 17. Uchquduqdagi eng asosiy metall koni. 19. Ulug' zot. 20. ...-Buxoriy, ...-Xorazmiy, ...-Farobi. 21. Daraxt. 23. Yaqin qarindosh. 25. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi va Vazirlar Mahkamasining gazetasi. 30. Toshkent Traktor zavodi. 31. Sensan sevarim, xoh ..., xoh ...ma. (Lutfiy g'azali). 32. Karashma. 34. Ona qo'shig'i. 36. Uy hayvonni. 38. Respublikamizdagi bog'chamaktab nomi. 39. Yurtimizdagi daryo nomi. 40. Ong, es. 42. Bug'doy mahsuloti. 43. Lotin alifbosidagi 22 harf.

**Tuzuvchi:** Nigora BONU, 29 - maktab o'quvchisi.



Diskoteka nima? U-asli qayerdan paydo bo'lgan? Bu kabi savollar ko'pchilikning xayolidan o'tgan bo'lsa kerak, albatta. Ba'zi yoshlar uni madaniy hordiga kayfiyatni ko'tarishning bir usuli deb hisoblaydilar. Menimcha undayemas. Ko'pchilikning orasida turfa muqomlar bilan raqs tushishi sharqofa urf odathrimizga to'g'ri kelmaydi. To'g'ri, dam olish ham kerak. Bo'sh vaqtimizni do'silar davrasida yaxshi kuy va qo'shiqlar tinglab, maroqli suhbat qurishga nima yetsin?! Agar uni badliy kitoblar o'qishtiga, hunar o'rganishga, bilimimizni boyitishga, til o'rganishga sarflasak, undan ham soz bolardi. Ushbu fikrlarimni

## DISKOTEKANI OLTINGA SOTIB OLMANG

o'qib, ayrim «zamonaviy» tengdoshlarim «bo'sh vaqtini qanday o'tkazish har kimning shaxsiy ishi-ku», deyishlari mumkin.

To'g'ri, men ularga nasihat qilmoqchi emasman, birligina niyatim — yoshlik davrini oltin ga ham topib bo'lmashigini eslatib qo'yish. Shunday ekan, osmon qadar bnyuk! Osmon qadar musaffo orzularimizga erishish yo'lida undan unuhli foydalanaylik.

Bu borada sizning fikringiz qanday, aziz tengdoshlarim?

Gulruhbegim ODASHBOYEVA,  
A.Navoiy nomli Respublika  
Nafis san'at litseyining  
II - «V» tarix sinfi o'quvchisi.

Shahar ko'chalarini aylanib yurib, peshtoqida «Kitob jamiyatning ikki qanotidir», degan yozuv ilingan kitob do'koniga ko'zim tushdi. Ichkariga kirdim. Ikki-uch nafar yoshi ulug'roq kitobxonlarni hisobga olmaganda, do'kon deyarli bo'm-bo'sh edi. Sotuvchilari ham bekorchilikdan zerikib, mudrab o'tirishardi.

## ENG OSUDA MASKAN

Javonlarga chiroqli qilib terilgan kitoblarning aksariyati bolalar uchun mo'ljallangan bo'lishiga qaramay, birona ham kitobxon o'g'il-qizni uchratmadim. Menga qolsa bu yerni shahrimizdagagi eng osuda maskanlardan biri, deb atagan bo'lardim.

Aynan ana shu do'konga tutash bo'lgan yana bir binoga kirdim. Zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan xona 10 - 12 yoshli bolalar bilan gavjum edi. Peshtoqiga «Internet klub» deb yozib qo'yilganiga qaramay, bu yerda «Internet» dan foydalanayotgan birorta ham bolani ko'rmadim. Ular kompyuterda har xil jangari o'yinlar o'ynash bilan band edilar. Kutubxonalaru kitob do'konlarining xuvillab yotishi sababini endi anglagandek bo'ldim...

Berilib o'yin o'ynayotgan bir bolani biroz kuzatib turdim. U shu qadar o'yinga berilib ketgan ediki, bu jang xuddi hayotda ro'y berayotgandek hayajonlanardi. Bir payt bor ovozi bilan «o'ldirdim, raqibimni o'ldirdim», deb baqirib

Bugun mening rejalarim juda ko'p. Oyim ishdan kelguncha ovqat pishirishim, hovli-ko'chalarni supurib-sidirishim, ukamni bog'chadan olib kelishim kerak.

Singlimni bog'chadan olib kelib, o'zim yumushlarimni bajarishga kirishib ketdim. Ishlarimni tugatib uyg'a kirsam, singlim yo'q. Yugurib ko'chaga chiqdim. Qo'shnimiz Muhammadi kelinoyimdan so'radim. Ular ham ko'rmabdilar. Birma-bir hamma qo'shnilarimizning uylariga kirib chiqdim. Hech qayerda yo'q. Oyoq-qo'lim bo'shashib, qo'rqqanidandan yig'lab yubordim. Bu singlimning birinchi

## SHU HAM HAZIL BO'LDI-YU...

emas, o'n oltinchi bor yo'qolib qolishi edi. Ko'chaning boshida oyijonimni ko'rib, battarroq yig'ladim. Ular nima bo'lganini so'radilar. Men yig'i aralash bo'lgan voqeani aytib berdim. Shunda Muhammadi kelinoyim birdan sharaqlab kulib yubordilar. Bilsam, ular men bilan hazillashmoqchi bo'lib, singlim Diloromni uylariga yashirib qo'ygan ekanlar...

Hazil qilish yaxshiku-ya, lekin qaltis bo'lmisin-da, to'g'rimi?

Dilrabo YUNUSOVA,  
Toshkent shahar,  
Sobir Rahimov tumanidagi  
249 - maktabning 8 - «G» sinf  
o'quvchisi.



goldi. Eshitgan quloqqa dahsat soluvchi bu so'zlarni u shunday mamnuniyat va g'urur bilan aytardiki, beixtiyor o'ylanib qolasan kishi. Chet ellardan kirib kelayotgan bunday

jangari filmlar, o'yinlar yoshlarimiz ongiga vahshiylilik, buzg'unchilik



## YOSHLIK QASIDASI

Oppoq tun payti. Xushhol yotardim. Osmon sokin edi, chaqnar yulduzlar. Oymomo jilmayib kulib boqardi. Qalbimda tuyg'ular to'lib-toshardi. Qalamim olib ayvonga chiqdim. Go'yo izlaganim bir zumda topdim. Oydinli tunda, oppoq kechada yoshlikka ajib bir qasida bitdim.

Yoshlik, go'yo so'lim, gulgun bahorsan. Nafis gulchechagu ko'miko'k niholsan. Inson deb atalmish ajib xilqatning chaman gulzorida gultojidirsan. Ezgulikka yo'l ochib, barg yozsin yoshlik. Sen bilan boshlanar jamiyki borliq. Sen malaksan, parilar havas-la boqqan. Olam sen-la quvonib, chechaklar taqqan. Yoshlikka yarashur maftunkor suqsur bo'yi -bast. Qalam qosh, charos ko'z, g'uncha lab, mohitob chehra. Shundan-da dil orom oladi bahra.

O, yoshlik, go'zallikning ma'nosisan sen! Buyuk hayot sozining navosisan sen! Umr daftarining bahosisan sen! Pokiza, g'uborsiz orzularimsan, qalbim ummonidagi sho'xliklarimsan, afsuski, sen qaytmash davronsan. Armonlar ham qolmas balki dunyoda. Lekin yoshlik chog'lari qaytmaydi hech ham, hattoki orzular ushalganda ham. Yoshlikning sarvari siz, aziz yoshlar! Yurtimning ko'z gavhari siz, aziz yoshlar! Biringiz opamsiz, biringiz akam, biringiz singlimu biringiz ukam, biringiz dugonam, biringiz tengdosh. Vatan deb yashaylik, bo'lib yelkadosh!

Sevar JABBOROVA,  
Qashqadaryo viloyati,

Shahrisabz shahridagi Bedil nomli maktab o'quvchisi.

Durdona OLIMOVA,  
Toshkent shahridagi  
196 - maktabning  
10 - sinf o'quvchisi.

Ona yurting - olin besishing

## TONG Yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasি

Muassislar:

O'ZBEKISTON  
MATBUOT VA  
AXBOROT  
AGENTLIGI,  
O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI  
VAZIRLIGI,  
«KAMOLOT»  
YOSHLAR IJTIMOIY  
HARAKATI,  
«SOG'LOM AVLOD  
UCHUN» XAYRIYA  
JAMG'ARMASI

Bosh muharrir  
Umida ABDUAZIMOVA

TAHIR HAY'ATI:

Feruza JALILOVA

(Bosh muharrir  
o'rinnbosari),

Shuhrat AHMEDOV,  
Jamoliddin FOZILOV,

Oynisa

MUSURMONOVA,

Qahramon

QURONBOYEV,

Po'lat MO'MIN,

Mukarrama

MURODOVA,

Tohir MULLABOYEV,

Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi kompyuter  
bo'limida terib  
sahifalandi.

Hajmi A-3, 2 bosma  
taboq.

«Sharq» nashriyot -  
matbaa aksiyadorlik  
kompaniyasida ofset  
usulida bosildi.

Adadi - 33729  
Korxona manzili:  
«Buyuk Turon»  
ko'chasi, 41.

Buyurtma № Г - 502

Gazetani  
Ma'suda

IRISNAZAROVA

sahifaladi.

Navbatchi:

Ozoda

TURSUNBOYEVA

Ro'yxatdan o'tish  
tartibi № 000137

Manzilimiz: 700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi,

30-uyi.

Tel: 144-63-08

144-63-75